

QISHLOQ XO'JALIGIDA BARQARORLIKNI TA'MINLASH UCHUN YERGA ISHLOV BERISH VA TEJAMKOR TEKNOLOGIYALAR TIZIMIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN CHORA-TADBIRLAR

Ergasheva Xonoyim Abduqaxxorovna,
Toshkent davlat agrar universiteti
O'simliklar karantini va himoyasi kafedrasasi assistenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, yerlarni ilg'or texnologiyalar asosida ekishga tayyorlash qishloq xo'jalik ekinlarini ilg'or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo'jalik mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilayotganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, ilg'or texnologiyalar, ishlab chiqarish, ta'minlash, rivojlanish, chora- tadbir, yer, tuproq.

Аннотация: В данной статье речь идет о снижении трудо- и энергозатрат в сельскохозяйственном производстве нашей республики, экономии ресурсов, подготовке земель к посеву на основе передовых технологий, выращивании сельскохозяйственных культур на основе передовых технологий, разработке высокопроизводительных сельскохозяйственных машин., говорится, что предпринимаются масштабные меры.

Ключевые слова: сельское хозяйство, передовые технологии, производство, снабжение, развитие, мероприятия, земля, почва.

Abstract: This article is about reducing labor and energy consumption in the agricultural production of our republic, saving resources, preparing land for planting on the basis of advanced technologies, growing agricultural crops on the basis of advanced technologies, and developing high-performance agricultural machines. it is said that extensive measures are being implemented.

Key words: agriculture, advanced technologies, production, supply, development, measures, land, soil.

Mustaqillik yillarida respublikada qishloq xo'jaligi sohasiga bozor tamoyillarini joriy qilish va mulkchilik shakllarini to'liq o'zgartirish bilan tub islohotlar o'tkazildi, natijada xo'jalik yuritishning yangi shakllari paydo bo'lib, ular qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining rivojlanishida o'z aksini topdi. Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va oziq-ovqat mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qishloq xo'jaligini strategik rivojlantirish doirasida o'tkazilgan kompleks chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, so'nggi yillarda sohada yuqori sur'atlarga erishildi.

Iqtisodiy islohatlarning butun zanjirida agrar sohadagi uzgarishlarga g'oyat katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa aholining aksariyati qishloqda yashashi, iqtisodiyotning agrar-sanoat tarzida ekanligi hamda xayotiy muhim muammolarni hal qilishda qishloq xo'jaligining tutgan o'rni bilan bog'liq. Hozir iqtisodiyotning Ayni agrar sohasi katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlardan foydalanib, aholini oziq-ovqat va sanoatni xom ashyo bilan taminlashni yaxshilabgina qolmay, Respublika qishloq aholisining turmushini farovon qilish ham mumkin. Qishloq xo'jaligida o'zgarishlar demokratik usullar bilan, avvalo, dehqonchilik sohasidagi mavjud ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni tubdan uzgartirish hisobiga amalga oshiriladi. Mehnatni tashkil etishning dehqon uchun tushunarli va foydali bo'lgan shakllarini tiklash zarur. Qishloq xo'jaligini

diversifikatsiya qilish, yer-suv resurslaridan yanada oqilona foydalanish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish orqali dehqonlarning daromadini oshirish borasida olib borayotgan tizimli ishlarimiz ham asta-sekin o'z samarasini bermoqda. Masalan, 2017 yil yakunida 96 ming gektar hosildorligi past maydonlarda paxta va g'alla o'rni ga 32 ming gektar yerda karam, turli sabzavot va ko'katlar ekildi va bu maydonlardan olingan minglab tonna mahsulotlar eksport qilindi. Shuningdek, 11 ming gektarda intensiv bog' va yangi tokzorlar, 1 ming 500 gektarda issiqxonalar barpo etildi. Qishloq xo'jaligi sohasida erishayotgan yutuq va natijalarimiz haqida yana ko'p gapirishimiz mumkin. Lekin yutuqlarga mahliyo bo'lib o'tirish, xotirjamlikka berilish bizga yarashmaydi. Chunki qishloq xo'jaligi sohasida hali ishga solinmagan imkoniyatlar, o'z yechimini kutayotgan muammo va kamchiliklar ham juda ko'pligini barchamiz yaxshi bilamiz. O'zbekistonni 2017-2021-yillarda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligini ham modernizatsiya qilish borasida eng muhim vazifalarni aniq belgilab, ularni izchil amalga oshirib borayotganimiz sohadagi ulkan muvaffaqiyatlarga asos bo'lib xizmat qilmoqda. Qishloq xo'jaligini joylashtirish mehnatning ijtimoiy bo'linishi, geografik (hududiy) bo'linishining bir shakli bo'lib, u qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'ziga xos xususiyatlaridan yuzaga keladi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnat va energiya sarfini kamaytirish, resurslarni tejash, yerlarni ilg'or texnologiyalar asosida ekishga tayyorlash qishloq xo'jalik ekinlarini ilg'or texnologiyalar asosida yetishtirish va yuqori unumli qishloq xo'jalik mashinalarini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, jumladan, dalalarni ekishga tayyorlashda tuproqqa asosiy ishlov berish va bir vaqtda uni ekishga tayyorlash orqali kam energiya sarflab, barcha texnologik jarayonlarni sifatli bajarilishini ta'minlaydigan texnik vositalarni ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi zamon jahon amaliyotida tuproqqa ishlov berishda energiya va resurstejamkor, tuproq unumdorligini oshiradigan, tuproqni ekologik himoyalaydigan texnologiya va texnik vositalarni ishlab chiqish hamda qo'llash yetakchi o'rinni egallaydi. Energiya va resurstejamkorlik traktor va qishloq xo'jalik mashinalarining yurish qismlari ta'siri ostida tuproqning zichlashishini oldini olish, mexanik ishlov berish sonini kamaytirish, tuproq unumdorligini saqlash, tuproqni himoya qilish, suv va shamol eroziyasini oldini olish, ishlab chiqarish xarajatlari va qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannaxrini pasaytirish uchun dolzarb hisoblanadi.

O'tkazilgan ilmiy-texnik va patent adabiyotlari tahliliga ko'ra, tuproqqa ishlov berishda tejamkorlik omillari energiya-tejamkorlik va resurstejamkorlikdan iborat. Tejamkor texnologiyalar tuproqning unumdor qatlami va namlikni saqlashga, suv va shamol eroziyasiga qarshi kurashishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Bunday texnologiyalarda har bir operatsiya ish organlari bilan tuproqqa ag'darib yoki ag'darmasdan ishlov berish orqali amalga oshirilishi mumkin [2]. Ayrim texnologiyalarda esa, dala yuzasida o'simlik poyalari va ildiz qoldiqlarini saqlagan holda, tuproqqa nol yoki minimal ishlov berishni qo'llash asosida bajarilishi mumkin.

Qishloq xo'jaligining asosiy vazifasi - tuproqqa sifatli ishlov beradigan va uni ekishga to'liq tayyorlaydigan energiya va resurstejamkor texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish hisoblanadi. So'nggi yillarda jahon amaliyotida nol ishlov berish va to'g'ridan-to'g'ri ekish maydonini ko'paytirish tendensiyasi yaqqol ko'rinmoqda [3]. Ammo, bunday ishlov berish usullarida begona o'tlar ko'payadi, bu esa gerbisidlar va o'simliklarni himoya qilish vositalaridan ko'proq foydalanishni talab qiladi, natijada mahsulot tannaxri sezilarli darajada oshadi.

Iqtisodiy islohatlarning butun zanjirida agrar sohadagi uzgarishlarga g'oyat katta ahamiyat berilmoqda. Bu esa aholining aksariyati qishloqda yashashi, iqtisodiyotning agrar-sanoat tarzida ekanligi hamda xayotiy muhim muammolarni hal qilishda qishloq xo'jaligining tutgan o'rni bilan bog'liq. Hozir iqtisodiyotning Ayni agrar sohasi katta imkoniyatlarga ega. Bu imkoniyatlardan foydalanib, aholini oziq-ovqat va sanoatni xom ashyo bilan taminlashni yaxshilabgina qolmay, Respublika qishloq aholisining turmushini farovon qilish ham mumkin. Qishloq xo'jaligida o'zgarishlar demokratik usullar bilan, avvalo, dehqonchilik sohasidagi mavjud ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlarni tubdan uzgartirish hisobiga amalga oshiriladi. Mehnatni tashkil etishning dehqon uchun tushunarli va foydali bo'lgan shakllarini tiklash zarur.

O'zbekistonda global iqlim o'zgarishlari tufayli suv taqchilligi sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlaridan yuqori hosil olish va aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash uchun mavjud suv resurslaridan samarali foydalanish va sug'orishning tejamkor texnologiyalarini keng joriy qilish muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda suvdan samarali va maqsadli foydalanish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, har yili 5 ming kilometrdan ortiq sug'orish, 12 ming kilometr kollektor-drenaj, 50 ming kilometr ariq tarmoqlari tozalanmoqda.

200 kilometrdan ziyod kanallar, 530 kilometr lotok va kollektor tarmoqlari, 400 dan ortiq gidrotexnik inshootlar va boshqa ko'pgina obyektlar rekonstruksiya qilinmoqda va qurilmoqda. Buning samarasida suvni iste'molchilarga o'z vaqtida yetkazib berish imkoniyati yaratilmoqda. Sug'orish tarmoqlarida suvning texnik yo'qotilishi va filtratsiyasi kamayishiga erishilmoqda. Jumladan, suv resurslaridan tejamli foydalanish yo'nalishidagi islohotlar tufayli foydalanilayotgan suvlarning umumiy miqdori 20 foizga kamayishiga erishildi. Bundan 10-15-yil avval 1 gektar sug'oriladigan maydonga 18 ming kub metr suv ishlatilgan bo'lsa, bugungi kunda bu ko'rsatkich 40 foizga kamaygan.

Mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarning bir qancha turlari qo'llanilmoqda. Egatga plynka to'shab sug'orish, o'q ariqlar o'rniaga egiluvchan quvurlardan foydalanish, tuproq ostidan sug'orish texnologiyasini qo'llash, yomg'irlatib sug'orish, tomchilatib sug'orish shular sirasidandir. Misol uchun, tomchilatib sug'orishda boshqa usullarga qaraganda 20 foizdan 60 foizgacha suv tejaladi. Tomchilatib sug'orish tizimini barpo etish uchun suv nasosi, filtr hovuz-tindirgich, o'g'itlovchi moslama, magistral va tarqatuvchi quvurlar, sug'orish shlanglari hamda yordamchi qismlar kerak bo'ladi. Hozir bu jihoz va anjomlarning aksariyati yurtimizda ishlab chiqarilmoqda. Suv nasosi "Suvmash" zavodida, filtr, turli diametrdagi plastik quvurlar, shlanglar, yordamchi va ulovchi qismlar "Sho'rtangazkimyo", "Maxsuspolimer", "Jizzaxplastmassa" va boshqa korxonalarda tayyorlanmoqda.

Suvdan foydalanish samaradorligini oshirishda Prezidentimizning 2013-yil 19-apreldagi "2013-2017-yillar davrida sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori muhim omil bo'lmoqda. Unga ko'ra, 2013-2017-yillarda 25 ming gektar maydonda tomchilatib sug'orish tizimi, 45,6 ming gektar maydonda egatga plynka to'shab sug'orish usuli hamda 34 ming gektar maydonda o'q ariqlar o'rniaga ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish usullari joriy etilishi belgilangan.

Tomchilatib sug'orish tizimini va suvni tejaydigan boshqa sug'orish texnologiyalarini joriy etgan mulk egalari boshqali don ekinlaridan bo'shagan maydonlarda boshqa qishloq xo'jaligi ekinlari o'stirish huquqi berilgan. 2014-yili Soliq kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlarga asosan yuridik shaxslar yer uchastkasining qaysi qismida tomchilatib sug'orishdan foydalanayotgan bo'lsa, o'sha maydon uchun tomchilatib sug'orish tizimi joriy qilingan oydan boshlab besh yil muddatga yagona yer solig'i to'lashdan ozod etildi.

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida 2019

yili xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020- 2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasi tasdiqlandi. Bir nechta texnologik jarayonlar majmuasi tuproqqa ishlov berish tizimi deyiladi. Masalan, tuproqqa ishlov berishning asosiy (chuqur) va qo'shimcha (sayoz) tizimlari mavjuddir. Asosiy ishlov berish ikki ko'rinishda — tuproq palaxsasini ag'darib hamda ag'darmasdan shudgorlab bajariladi. Qo'shimcha ishlov berish esa ekishdan oldingi va ekishdan keyingi turlarga bo'linadi.

Har qanday ekinning hosildorligini oshirish maqsadida uni ekishdan oldin tuproqqa ishlov berib, uni qulay holatga keltirish zarur. yerga ishlov berishda asosiy e'tiborni tuproqni himoyalab, uning unumdorligini tiklashga qaratish kerak. Shu maqsadda, tuproqqa ishlov berishning an'anaviy va resurs tejamkor usullaridan foydalaniladi. Maxalliy sharoitga moslab qanday usuldan foydalanish tanlanadi. Sug'oriladigan yerlarda 2 - 3 marta hosil olish uchun tuproqqa intensiv ishlov berish texnologiyasidan foydalaniladi. Bu esa dalaga mashina - traktor agregatlarini, shu

jumladan, plugli agregatlarni ko'p marta kiritishga olib keladi. Natijada tuproqning ustki qatlami uvalanib changga aylanishi, pastki qatlamining esa zichlanishi kuchayadi. Bundan tashqari, plug bilan bir necha yil davomida yerga bir xil chuqurlikda ishlov berilganda shudgor tubida o'ta zichlangan «berch tovon» paydo bo'lib, o'simlik ildizining rivojlanishi va suvning shimilishiga to'siqlik qiladi. Bunday yerlardan yuqori hosil olishning iloji qolmaydi. yerga solingan mineral o'g'itning samarasi ham kam bo'ladi. Shu sababli so'nggi vaqtda dunyo buyicha yerga ishlov berishning resurs tejamkor usullari va tuproqni himoyalovchi texnologiyalari keng tarqalmoqda.

Resurs tejamkor texnologiyani ba'zi mutaxassislar nufuzli, kimyoviy, minimal, alternativ texnologiya, mo'ljallash, pushtalash texnologiyasi deb atashadi. Ularning asosiy ko'rsatkichi yerga ishlov berishda plugdan har yili foydalanmaslikdir. Shu sababli bir nechta texnologik operatsiyalarni murakkablashtirilgan, qurama (kombinatsiyalashtirilgan) agregatning bir yurishida bajarib, tuproq zichlanishining oldini olish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR:

1. Ergashev R. X., Fayziyeva S. S., Xamrayeva S. N. Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti //Toshkent" Iqtisod moliya.-2018. – 2018.
2. Maxmud O'g'li B. S. TUPROQQA ZAMONAVIY ISHLOV BERISH USULLARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 3. – С. 1014-1016.
3. Tolib o'g'li X. et al. ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING QISHLOQ XOJALIGIDA TUTGAN ORNI //Conferencea. – 2022. – С. 396-398.

YURTIMIZDA O'SIMLIKLARNI HIMOYA QILISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING ISTIQBOLLARI

Ergasheva Xonoyim Abduqaxxorovna
Toshkent davlat agrar universiteti
O'simliklar karantini va himoyasi kafedrasasi assistenti.

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'simliklar karantini sohasida samarali monitoring olib borish tizimini ishlab chiqish, o'simliklar karantini sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'simliklar hayoti tuproq va tashqi sharoit bilan mustahkam bog'langanligi, o'simliklar karantini sohasidagi davlat dasturlarini, hududiy va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: o'simliklar karantini, tuproq, o'simlik, xususiyat, qishloq xo'jaligi, organlar, oziqlanish, unumdorlik.

Аннотация: В данной статье рассматривается разработка эффективной системы мониторинга в области карантина растений, развитие международного сотрудничества в области карантина растений, тот факт, что жизнь растений сильно связана с почвой и внешними условиями, государственные программы в области карантина растений, региональной и говорится, что он будет участвовать в разработке и реализации других программ.

Ключевые слова: карантин растений, почва, растение, свойства, земледелие, органы, питание, плодородие.

Abstract: In this article, the development of an effective monitoring system in the field of plant quarantine, the development of international cooperation in the field of plant quarantine, the fact that plant life is strongly connected with the soil and external conditions, state programs in the field of plant quarantine, regional and it is said that he will participate in the development and implementation of other programs.

Key words: plant quarantine, soil, plant, properties, agriculture, organs, nutrition, fertility.

O'simliklar — tirik organizmlar dunyosi; fotosintez qilish xususiyatiga ega bo'lgan avtotrof organizmlar, hujayra po'sti, odatda, qalin sellulozadan, zaxira oziq moddasi kraxmaldan iborat. Ayrim O'simliklar. (saprofitlar, parazitlar) uchun xos bo'lgan geterotrof oziqlanish ikkilamchi hisoblanadi. O'simliklarga xos boshqa xususiyatlar (o'ziga xos rivojlanish sikli, organlarning shakllanish yo'li, yopishib yashash va boshqalar) hamma

O'simliklarga tegishli emas, lekin bu belgilarning majmui O'simliklarni boshqa tirik organizmlardan oson farq qilishga imkon beradi. Faqat tuzilishning quyi, ayniqsa, bir hujayralilar darajasida O'simliklar bilan boshqa organizmlar o'rtasidagi farq uncha aniq sezilmaydi; shuning uchun evgenasimon suvo'tlarni zoologlar bir hujayrali hayvonlarga kiritishadi. Bir hujayrali O'simliklarning boshqa bir hujayrali organizmlardan asosiy farqi — xloroplastlar